

KOMMUNIKATIV METODIKA – PEDAGOGIK ALOQANING ASOSIY VOSITASI

Olimova Dono Shokirovna

TTA Urganch filiali, O‘zbek tili va adabiyoti, tillar kafedrasи mudiri, p.f.n.

A. F. Qurbonboyeva

TTA Urganch filiali 1-bosqich magistranti

Annotatsiya:

Ushbu maqola kommunikativ metodning pedagogikada qay darajada muhim ekanligini tadqiq etadi. Kuzatuvlar va o‘rganishlarimiz maqolada “kommunikativ pedagogika”ning o‘quv jarayoniga va talabalarning bilim olish darajasiga ta’sirini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: pedagogika, metod, kommunikativ yondashuv, muloqot, kompetensiya, ko‘nika, o‘quv jarayoni, ta’lim.

Annotation:

This article explores the importance of the communicative method in pedagogy. Our observations and studies in the article reveal the impact of "communicative pedagogy" on the educational process and the level of students' learning.

Keywords: pedagogy, method, communicative approach, communication, competence, skill, educational process, education.

XXI asrga kelib kommunikativ o‘qitish usuli pedagoglarning asosiy quroliga aylanib oldi. Globallashuv davri ushbu jarayonni yanada avj olishiga ta’sir qilmoqda. Kommunikativ yondashuv – bu muloqotni modellashtiruvchi o‘qitish strategiyasini belgilaydigan tamoyillar to‘plami. Bu talabalarning xorijiy nutqning ma’nosini idrok etish va tushunishni rivojlantirishga qaratilgan; lingvistik materialni o‘zlashtirish va nutq so‘z birikmalarini qurishda u bilan ishlash usullari [1]. Kommunikativ o‘qitish metodikasi dastlab Yevropada tilni o‘rtgatish maqsadida yaratilgan bo‘lsa [2], hozirgi kunga kelib ushbu metoddan deyarli barcha ta’lim yurtlarida turli sohalarni o‘qitishda foydalanib kelinmoqda. Ushbu metoddan asosiy maqsad shundaki, talabalarga samarali muloqot orqali berilayotgan bilimlarni sodda va aniq shaklda



yetkazish, shu bilan birga, ta'lim oluvchi bilan nutqiy aloqa o'rnatish orqali ularda qay darajada kompetensiya shakllanganini aniqlashdan iborat. Kommunikativ faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv – ta'limning rivojlantiruvchi, funksional va kommunikativ xususiyatlariga ega bo'lib, ta'lim jarayonida bilish faolligini oshirishga ko'maklashadi [3]. Shundan ma'lumki, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi muloqot bu nafaqat kommunikativ jarayon balki ta'lim sifatini yaxshilash uchun xizmat qiluvchi muhim vosita hamdir.

O'qitish jarayonida pedagoglar kommunikativ metodni qo'llashi foydali bo'lishi bilan birga muammoli vaziyatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin [4]. Ayniqsa meditsina, biologiya va kimyo sohalarida ushbu yondashuvni talabalar zarur bo'limgan qobiliyatni shakllantirish uchun foydalilanadi, deya qabul qiladilar. Ba'zi talabalarda kommunikativ qobiliyat tabiiy shakllangan bo'lsa, ba'zilarda shakllanishi qiyin kechadigan va o'qitish jarayoniga salbiy ta'sir etishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda kommunikativ o'qitish jarayonida pedagog duch keladigan muammolarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- Muloqot ko'nikmalari qadrsizlanishi oqibatida o'qitish imkonini pasayishi mumkin;
- Turli guruhlar o'rtasida o'qitish va baholash usullaridan noaniq yoki nomuvofiqlik yuzaga kelishi mumkin;
- Ko'nikmalarini shakllantirish va baholash uchun resurslar va vaqt yetarli bo'lmaydi;
- Muloqot ko'nikmalarini oshirish professor-o'qituvchilar va talabalardan o'z-o'zini anglash, shaxslararo sezgirlik va o'z-o'zini aks ettirish va moslashishga tayyor bo'lishni talab qiladi;
- Kam sonli professor-o'qituvchilar muloqot ko'nikmalarini o'rgatish va baholash bo'yicha malaka oshirishgan;
- Professor-o'qituvchilarning nomutanosib fikr-mulohazalari talabalar o'rtasida chalkashliklarga olib keladi.

Ta'limdagি kommunikativ yondashuvning uslubiy va gnoseologik mohiyati tarbiyaviy pedagogik hodisalarini ta'lim va pedagogik aloqa tushunchasi prizmasi orqali o'rganishdir. Ushbu fikr "pedagogik muloqot" tushunchasining mohiyatini o'rganish zarurligini asoslaydi.

Pedagogikada "pedagogik muloqot" tushunchasi keng va tor ma'nolarda tasniflanadi. Keng ma'noda ushbu atama ta'limning barcha sohalarida, shu jumladan

ta'limni boshqarish va ilmiy aloqa sohasida amalga oshiriladigan pedagogik o'zaro ta'sir sifatida talqin etiladi. Tor ma'noda "pedagogik muloqot" tushunchasi zamonaviy fanda ta'lim jarayoni doirasida amalga oshiriladigan pedagogik o'zaro ta'sirni anglatadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik o'zaro ta'sir deganda, biz pedagogik jarayonning tegishli pedagogik muammolarni hal qilishga qaratilgan o'zaro ta'sirini tushunamiz.

Pedagogik muloqotning muvaffaqiyatlari bo'lishi o'qituvchining tinglovchilar bilan aloqa o'rnata olish yoki o'rnata olmasligiga, taqdimotining tizimliligiga, mantiqiyligiga, argumentatsiyasiga, o'quvchilarни keyingi faoliyatiga foydaliligiga, e'tiborni boshqarish, nizolarni, kelishmovchiliklarni oldindan bilish, ularni yengillashtirish qobiliyatiga, muloqotda hissiy keskinlik va to'siqlarni olib tashlash, ziddiyatli vaziyatlar paydo bo'lishining oldini olishiga bog'liq.

Pedagogika fanida ta'limdagi kommunikativ yondashuv – bu muloqotni shaxs rivojlanishining ontologik, teleologik, aksiologik asosi va ta'limning metodologik asosi sifatida belgilaydigan, ochib beradigan va aktuallashtiradigan universal g'oya sifatida ta'riflanadi. E.I.Passovning fikriga ko'ra, kommunikativ yondashuv o'quv jarayonini, nutq aloqasining asosiy qismlarini modellashtirish orqali real muloqotning adekvat jarayonini tashkil etishga qaratilgan[5].

L.N. Golub ta'kidlashicha, "kommunikativ yondashuv o'quv markaziga aloqaning subyekt-subyekt sxemasini qo'yadi, ya'ni o'quvchi-o'qituvchi tomonidan boshqariladigan ta'lim faoliyatining faol, ijodiy subyekti sifatida harakat qiladi; talabalarning tashabbuskorligi va ijodiy izlanish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi" [6]. Boshqacha aytganda, kommunikativ yondashuv muloqot amaliyotiga qaratilgan. Agar o'qituvchi o'quvchini o'z fikrlarini ifoda etishga undaydigan kommunikativ muloqotning noan'anaviy usullaridan foydalansa, bu usul samarali amalga oshiriladi.

Kommunikativ ta'lim usulining asosiy afzalligi shundaki, o'quv jarayoni nutq aloqasining real jarayoniga adekvat tarzda tuzilgan, ya'ni o'quv jarayoni nutq aloqasi jarayonining modelidir. Kommunikativ yondashuvning ahamiyati ta'lim maqsadlari va mazmunini, uning usullari va vositalarini individuallashtirish qobiliyatidadir. Avvalo, ta'limda kommunikativ yondashuvga murojaat qilish o'qitishda kommunikativ usulni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Ta'limda kommunikativ yondashuvni amalga oshirish, kommunikativ usuldan foydalanish o'quvchilarning muloqot qobiliyatlari darajasini rivojlantirish, ularning



**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st May - 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish, kommunikativ madaniyat darajasini oshirishga ilkan hissa qo'shamdi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishining hozirgi bosqichida ta'limning maqsad va vazifalarini amalga oshirish shaxsning ham, butun jamiyatning ham kommunikativ madaniyatini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Malakali mutaxassislar ham yuqori darajadagi muloqotga va kommunikativ kompetentsiyaning yaxshi rivojlangan tarkibiy qismlariga ega bo'lishi kerak. Bularning barchasi ta'limda kommunikativ yondashuvni amalga oshirish zarurligini asoslaydi, uning mohiyati ta'lim muloqotining real vaziyatlilagini ta'minlashdan iborat bo'lib, uning doirasida yuqorida ko'rsatilgan shaxsiy fazilatlar kommunikativ usulni qo'llash va ta'limda kommunikativ yondashuvni joriy etish prinsiplarni hisobga olgan holda shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Пассов, Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению / Е. И. Пассов. 2-е изд. — Москва : Просвещение, 1991. — С.32-33.
2. Merlissa Elpedes Suemith, The Communicative Language Teaching Approach: Theory and Practice, Magister Scientiae - ISSN: 0852-078X Edisi No. 30 - Oktober 2011. Page 2.
3. Sh.I.Musayeva, Kommunikativ yondashuv va interaktiv metodlar yordamida kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetentsiyasini rivojlantirish, Образование наука и инновационные идеи в мире, Выпуск журнала № – 18Часть–2_Апрель–2023, ISSN 2181-3187. <http://www.newjournal.org/>
4. Cynthia L. va boshq. Integrating the Art and Science of Medical Practice: Innovations in Teaching Medical Communication Skills, Section II: Major Lessons Learned in the Nine Content Areas of the UME-21 Project.
5. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению: пособие для учителей иностранных языков. – 2-е изд. – М.: Просвещение, 1991. – 223 с.
6. Голуб Л.Н. коммуникативный подход в обучении // Вестник Брянской государственной сельскохозяйственной академии. – 2017. – № 4. – С. 64-67.